

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI**

BUXORO DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

O'ZBEKISTON EKOLOGIYA PARTIYASI BUXORO VILOYAT KENGASHI

MIRI ARAB OLIY MADRASASI

**EKOLOGIK MADANIYAT:
MUAMMO VA YECHIMLAR**

**mavzusidagi respublika ilmiy-nazariy
ANJUMANI**

Buxoro - 2025



«Ekologik madaniyat: muammo va echimlar» mavzusidagi respublika ilmiy-nazariy anjumani Buxoro davlat texnika universitetida 2025 yil 12 mayda o'tkazildi. Anjuman to'plamiga "O'zbekiston-2030» strategiyasida ilgari surilgan ustuvor vazifalar va tavsiyalardan kelib chiqqan holda ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyati kasb etuvchi g'oyalar, taklif-mulohazalar, xulosalar o'z ifodasini topgan maqolalar kiritildi.

To'plam materiallari jamiyatda ekologik madaniyat va ongni yuksaltirish, yosh avlodda atrof-muhitni muhofaza dunyoqarashini shakllantirish, ekologik ta'lim va tarbiyani uzviyligi ta'minlash hamda "Yashil" iqtisodiyotning o'ziga xos afzalliklarini keng jamoatchilikda etkazish, ma'naviy jihatdan barkamol inson etib tarbiyalashga xizmat qiladi. Professor-o'qituvchilar, tadqiqotchilar, ekologiya masalalari bilan qiziquvchi talaba-yoshlar uchun mo'ljallangan.

Tahrir hay'ati:

Sadoqat Siddiqova - BuxMTI rektori
Gulchehra Navro'zova - Bux.DTU. "Ijtimoiy fanlar va jismoniy madaniyat" kafedrasida professori, falsafa fanlar doktori

Erkin Zoyirov - BuxDTU. "Ijtimoiy fanlar va jismoniy madaniyat" kafedrasida mudiri, falsafa fanlari doktori (DSc)

Feruz Bafoyev - BuxDTU. "Ijtimoiy fanlar va jismoniy madaniyat" kafedrasida dotsenti, siyosiy fanlari nomzodi

Mas'ul maharrir:

Abduraxim Boltayev - BuxDU professori, falsafa fanlari doktori (DSc)
Voxidova Munira - BuxDTU. "Ijtimoiy fanlar va jismoniy madaniyat" kafedrasida dotsenti, falsafa fanlari nomzodi

Taqrizchilar:

Oygul Sharipova - BuxDU professori, falsafa fanlari doktori (DSc)
Avliyoqulov Uchqun - Mir Arab Oliy madrasasi prorektori

Maqolalarda keltirilgan ixtiboslar (sitatalar) va maqolalar mazmuni uchun javobgarlik mualliflar zimmasida.



“Tunlarning qorong‘iligini emas, tunni kunduzga kiritish to‘g‘ridir. Qorong‘u tunlarda nega der edi”.

Do‘stlar qatori daryoga soya soladi,
Baliqning tanasida tikan o‘ssin.

Muallif shu tariqa yuqoridagi asarlardan 5 baytni tahrir qilib, ulardagi kamchilik va nuqsonlarni aniqladi.

An‘anamiz g‘azalda usta edi.

Shahar vayron bo‘ldi, qishloq obod bo‘ldi.

Ko‘rinib turibdiki, qasaid degan to‘liq unvonga ega bo‘lgan Urfi Sheroziy g‘azal sifatida qasidada yo‘q. Odo aytish juda mushkul, bu ishning olg‘a siljishi yuksak so‘zgo‘y, alloma shoirning oldida, degan qarorga keldi”.

Muallif she‘riyat va she‘riyatga qiziqqan, professional shoir bo‘lmagan ayrim kishilarning ijodini tasvirlaganda alohida ta‘kidlaydi. Chunonchi, Kamol shoirning she‘r uslubi haqida shunday yozadi: “Mashhurlar bilan mashhurlar o‘rtasida, Gohida she‘rga moyilliklari bor edi”.

Orif degan shoir “Ba‘zan uning xotirasidan bir she‘r chiqadi”, deb xabar beradi.

Shoir Zohirning tanishi haqida shunday yozadi: Hayotda u o‘qituvchilikka, kamdankam she‘rga yuzlanadi.

Mirsiddiqxon Hashmatning bu masala bilan bog‘liq ta‘rifining yana bir xususiyati shundaki, roviy shoirlar bayoni va g‘azallari davomida o‘zi qo‘lga kiritgan hujjatlarni manba materiallarga qiyoslab belgilaydi. Bu holatni Donish, Hoziq va Gulxaniylarning taqdimotida ham ko‘rish mumkin.

Hamroyev Asliddin Umed o‘g‘li
BuxDU, Arxeologiya va Buxoro
tarixi kafedrası o‘qituvchisi

AMIR HAYDARNING MA‘NAVIY QIYOFASI

Buxoro amirligi tarixida o‘tgan hukmdorlar to‘g‘risida bir qancha tarixiy ma‘lumotlar mavjud. Mazkur ma‘lumotlar asosan, ularning hukmdorlik yillari davrida amalga oshirgan ishlari, harbiy yurishlari yoki o‘tkazgan iqtisodiy islohotlari va bunyodkorlik faoliyati to‘g‘risida bo‘lib, ularning ma‘naviy qiyofasi, xulq-atvori borasidagi manbalarga asoslangan tarixiy faktlar kam uchraydi.

Mang‘itlar sulolasi vakillari hokimiyatni qo‘lga kiritganlaridan boshlab, xalqning e‘tibor va e‘tirofiga sazovor bo‘lishga harakat qilishganiga shubha yo‘q. Negaki, xalqning qo‘llab-quvvatlashi bu hokimiyat davomiyligini ta‘minlovchi asosiy shartlardan biri hisoblanadi.

Ma‘lumki, Doniyolbiy Otaliqning katta o‘g‘li Amir Shohmurodning ma‘navan yuksak inson bo‘lganligi haqida “Gulshanul muluk”, “Tarixi Xumuliy”, “Risola yoxud muxtasari tarixi saltanati xonadoni mang‘itiya” (“Risola yoxud mang‘it xonadoni salnatining qisqacha tarixi”) va “Tarixi amironi mang‘itiyai Buxoro” (“Buxorodagi mang‘it amirlarining tarixi”) kabi asarlarda ko‘plab ma‘lumotlar keltirilgan bo‘lsa, undan keyin taxt vorisi bo‘lgan Amir Haydarning ma‘naviy qiyofasi haqida “Tarixi Amir Haydar” va “Maktuboti Amir Haydar” kabi asarlardan ayrim ma‘lumotlarni topish mumkin.

Amir Haydar (1800-1826) Shohmurodning to‘ng‘ich o‘g‘li bo‘lib, nasl-nasabda o‘z davrining ziyoli va hurmatga loyiq qatlami bo‘lgan sayyidlarga va xonlarga borib taqalgan. Onasi Shamsiyabonu so‘nggi ashtarxoniy hukmdor Abulfayzxonning qizi bo‘lgan. Bu ayni paytda uning Chingizxon va payg‘ambar s.a.v. nasliga aloqadorligini anglatadi. Shuning uchun Amir Haydardan boshlab qolgan barcha mang‘it hukmdorlari ismiga “sayyid” va “xon” kabi nasabining aslligini ko‘rsatuvchi qo‘shimchalar qo‘shila boshlagan.



Demak, Amir Haydar shubhasiz, o'z nasabiga mos, ma'navan yuksak kamolot kasb etishga, shuning bilan birgalikda otasi erishgan ulug' maqomga munosib farzand bo'lishga harakat qilgan.

Biz mazkur tezisda Amir Haydar davrida jamlangan va "Maktuboti Amir Haydar" deb nomlanib, bizgacha yetib kelgan O'zR FA Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondida № AR-5412 raqam ostida saqlanib kelayotgan qo'lyozma manbaga asoslanib, Amir Haydarning ma'naviy qiyofasini tadqiq qildik. Mazkur to'plamda Amir Haydarning o'z hukmronlik yillarida turli mansabdor shaxslarga, asosan, qushbegi va mehtar lavozimlarida faoliyat ko'rsatgan Muhammad Hakimbiyga yozgan topshiriqlari, buyruq va farmoyishlari o'rin olgan.

Mazkur maktublar diqqat bilan tadqiq qilinsa, uning harbiy-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy jabhalarga aloqador ekanligi ma'lum bo'ladi.

Maktubotning 52-maktubi o'sha paytda mehtar lavozimida faoliyat ko'rsatib turgan Muhammad Hakimbiyga yo'llangan bo'lib, bu maktub mazmunidan Amir Haydarning davlat rahbari sifatidagi ma'naviy qiyofasi anglanadi. Maktubda Muhammad Hakimbiyga buyruq, nasihat va ko'rsatma ohangida yosh navkarlarga e'tiborli bo'lishi shartligi uqtirilgan. Maktubdan yana o'sha paytdagi nozik harbiy vaziyat, adolatli iqtisodiy siyosat yuritishga intilish kabi ko'plab boshqa mazmunlarni ham anglash mumkin. Maktubni ahamiyatga ega deb topganimiz uchun uni to'liq keltirishni lozim topdik. Maktub quyidagicha:

"Amirlikning izzatga loyiq, qadri biland kishisi Muhammad Hakimbiy Mehtarga.

Shohona marhamatlardan sarafroz bo'lgan holda bilsinlarkim, bu muddatgacha xalq va o'zimizning mehribonchiligimiz tufayli sipoh va fuqaro orasidan bir qadar yosh navkarlarni yig'ishga erishdik. Fuqarolar ham rioyat topdilar. Shuning uchun bizga ko'p ixlos ko'rsatmoqdalar. Yaxshi xulqingizni fuqaroga ko'rsating. Fuqarolar rioyat ko'rsalar, raiyat ham rioyat topadi. Mamlakat obod bo'ladi. Bir parcha non topsangiz shogirdpeshalar bilan baham ko'ring. Albatta, yosh shogirdpeshalar shahardan tashqariga rioyat izlab ketib qolmasinlar. Ularni amniyatda ehtiyot qilishingiz lozim. Albatta, siz bu ishga beparvolik ko'rsatmang. Hamisha ularga e'tiborli bo'ling.

Biz u joyda o'zimiz bo'lgan vaqtlarimizda shahar tashqarisidagi bozor va do'konlardan boshqa joylarni ochiq qoldirmas edik. Hozir ham shunday qilsinlar. Bu shaharning obodligiga sabab bo'ladi. Ayrim juz'iy ishlarni bizga arz qildilar. Bu kabi juz'iy ishlarni o'zingiz qilingiz. Qo'lidan ish keladigan, amalga loyiq shogirdpeshalardan ikki-uchtasini vaqtini topib bizga olib keling, biz ularga amal beramiz.

Yana qanday gapingiz bo'lsa, yasovullar orqali bizga yuborib turing. Yosh shogirdpeshalar bilan yubormang. Assalomu alaykum"¹.

Maktubotdagi maktublarning deyarli barchasi 1800-1801 yillarda yozilganini inobatga olsak, Amir Haydar 25-26 yoshlardagi navqiron yigit bo'lganligi ma'lum bo'ladi. Maktub mazmunidan mazkur yoshda u qo'l ostidagi katta yoshli vazirlar va boshqa amaldorlarga nasihat qila oladigan darjada salohiyatli ekanligi ko'rinadi. Bundan tashqari yetuk rahbar, oqil siyosatchi hamda xalq va raiyat manfaatlarini o'ylovchi insonligi ham anglashiladi.

Amir Haydarning ma'naviy qiyofasini ko'rsatuvchi maktublar ko'p. Shunday maktublardan yana birini ko'rib o'tamiz. Maktubda Amir Haydar otasi Amir Shohmurod davrida hurmat qozongan ulamolardan biri Muhammad Musoxo'jaga hurmat va e'tibor ko'rsatilishi to'g'risida buyurib, ulamoni "bizning eski, vorisiy duogo'ylarimizdan" deb ta'kidlagan. Bundan ko'rinadiki, Amir Haydar otasi hurmat qilgan insonlarning hurmatini joyiga qo'yishni o'ziga burch deb bilgan. Bu ayni paytda uning ma'navan barkamol, bag'rikeng va muruvvatli insonligini ochiqlyaydi. Maktub quyidagicha:

¹ Мактуботи Амир Ҳайдар. № АР-5412, 52-мактуб, 21-бет. А.Болтаев таржимаси.



“Amirlikning izzatga loyiq kishisi, hukumatda o‘z o‘rniga ega, xoqonning yaqini Muhammad Hakimbiy Mehtarga.

Podshohona marhamatlardan sarafroz bo‘lgan holda bilsinlarkim, Muhammad Musoxo‘ja bizning eski, vorisiy duogo‘ylarimizdan hisoblanadilar. Farmoni oliy shundayki, siz mazkur xo‘janing duogo‘yligi va xizmatlarini inobatga holda unga lozim bo‘lgan navozish va mehribonliklarni keragidan ortiq ko‘rsatib, uning ahvoli va vaqtdan xabardor bo‘lib turingiz. Amri oliyga muvofiq amal qilinsin. Assalomu alaykum”¹.

Xulosa qilib aytish mumkinki, “Maktuboti Amir Haydar” o‘zidagi maktublarning va ularda bayon qilingan masalalarning ko‘lami kengligi bilan e‘tiborga loyiq. Shuningdek bu orqali biz tariximizning yangi sahifalarini ochamiz, o‘sha davr va undagi kishilar ma‘naviy olamiga sayr qilamiz.

Temirov Sheroz To‘rayevich
BuxDTU katta o‘qituvchisi

XX ASR BOSHLARIDA BUXORODA ILMIY-ADABIY MUHIT

Buxoro amirligida mang‘it sulolasi (1747-1920y.y.) o‘zbek davlatchiligi tarixida muhim o‘rin tutadi. XVIII asrning boshlarida Xiva va Qo‘qon xonliklari bilan bir qatorda Buxoro amirligi Markaziy Osiyo mintaqasida muhim siyosiy va iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy rol o‘ynadi.

O‘rganilayotgan XX asr boshlarida Buxoro amirligida davlat boshlig‘i va hukmdor sifatida Amir Muzaffar (1860-1885 y.y.), Amir Abdulahad (1885-1910 y.y.) va Amir Olimxon (1910-1920 y.y.)lar davlatni idora etishgan.

Amir Muzaffar, Amir Abdulahad va Amir Olimxon juda ko‘plab mahalliy tarixchilar tomonidan o‘ta berahm, o‘ta qattiqqo‘l hukmdorlar, zolim davlat rahbarlar sifatida talqin etilgan. Aslida ularning asl qiyofasi qaytarzda bo‘lganligi mustaqillik davri tadqiqotlarida xolisona ochib berilmoqda.

Shuni alohida ta‘kidlash joizki, Sayid Muzafariddinxon (1860-1885 yy.), Sayid Abdulahadxon (1885-1910 yy) va Sayid Olimxon (1910-1920 yy) tomonidan Buxoro amirligini idora qilish va davlatni boshqarish siyosati, ularning shaxsiyati, ayniqsa, sovet totalitar tuzumi davrida salbiy tarzda tasvirlangan². Xuddi shu holatdagi baholarni Yevropa olimlari asarlarida ham uchratish mumkin³. Jumladan, Bekker o‘z asarlarida Buxoro amirlarini ashaddiy zolim va despotik hukmdor sifatida talqin qilgan. Yevropalik barcha olimlar mazkur masalaga aynan shu holatda salbiy baho berishgan, degan umumiy xulosadan yiroqmiz. Chunki ayrim olimlar hukmdorlarga boshqacha baho berishgan. Jumladan, XIX asrda Buxoroga tashrif buyurgan Herman Vamberi Buxoro hukmdorlariga ob‘ektiv baho berishga uringan⁴.

Shuni alohida ta‘kidlash joizki, Buxoro hukmdorlari Abdulahadxon va Olimxonlarning har ikkalasi ham Rossiya imperiyasining poytaxti Sankt-Peterburg shahrida kadetlar

¹ Maktuboti Amir Ҳайдар. № АР-5412, 32-мактуб, 14-бет. А.Болтаев таржимаси.

² Қаранг, А. Фитрат ва С. Айний асарларида шундай баҳо берилган.

³ Becker C. Russians protectorates in Central Asia, Burhara and Khiva. 1865-1924, Cambridge, 1968, p. 31-33.

⁴ Муфассал қаранг: Ражабов Қ. Бухорога қизил армия босқини ва унга қарши кураш.-Т.: Маънавият, 2002; Холиқова Р. Бухоронинг сўнгги ҳукмдорлари. // Жамият ва бошқарув. 2004, 2-сон, 54-57- бетлар. Бухоро ҳукмдорлари ҳақида Қ. Ражабовнинг ҳам бир қатор мақолалари мавжуд. Қаранг: Ражабов Қ. Муҳаммад Раҳимхон - манқитлар сулоласи асосчиси. // Бухоро мавжлари. 2005, 3- сон, 36-37- бетлар. Шу муаллиф, Муҳаммад Дониёлбий оталиқ: бийлик мансабидан амирлик рутбасигача. //Бухоро мавжлари, 2005. 4-сон, 37-339- бетлар; Ўзбекистон Миллий энциклопедиясидаги Амир Шоҳмурод 10-жилд, Амир Насруллоҳ 6-жилд, Амир Музаффар 6-жилд, Амир Olimxon 6-жилд Муҳаммад Ҳакимбий оталиқ, Муҳаммад Раҳимхон 11 жилд ва б. амирлар ҳақидаги мақолалар ҳам Қ. Ражабов қаламига тегишли.



Rajabova D.B., Karomatov O.Yu. IBN SINO TA'LIMOTIDA EKOLOGIK TOZA MAXSULOTLAR HAQIDA..... 178

Shodiyev Jahongir Jo'raqulovich. YANGI O'ZBEKISTONDA YOSHLARNI QADRIYATLARGA HURMAT RUXIDA TARBIYALASH HAMDA JAMIYATDA INSON QADRINI OSHIRISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI VA ISTIQBOLLARI 179

Zaripova Moxira Djurayevna. "YASHIL" IQTISODIYOT VA EKOLOGIK MUAMMOLAR..... 181

TARIXIY MEROS VA ISLOM FALSAFASIDA EKOLOGIK DUNYOQARASHNI SHAKLLANTIRISH MASALALARI..... 184

Navro'zova Gulchehra Ne'matovna. TASAVVUFIY MEROSNING EKOLOGIK MUAMMOLARNI YECHISHDAGI O'RNI 184

Savriyeva I.B. OLIY TA'LIMDA "EKOMUHANDISLIK" TA'LIM TEXNOLOGIYASINING AHAMIYATI 188

Abduvohidov Dilshod Narbotirovich, XRISTIANLIKNING BO'LINISHI: PRAVOSLAV OQIMINING QISQACHA TARIXI 191

Dehqonov Behzod Baxtiyorovich. TASAVVUFDA INSON MA'NAVIY KAMOLOT MASALASI..... 193

Ergashev Oybek Qaxramon o'g'li. ISLOM DINIDA ISROFGARCHILIK VA EKOLOGIK MUAMMOLAR..... 195

Ismailov Shuhrat Atamurodovich. YANGI O'ZBEKISTONDA IMKONIYATI CHEKLANGANLARNI IJTIMOYIY HIMOYA QILISH MEXANIZMI..... 197

Qalandarova Farida Azamatovna. FOROBIY IJODIDA BAG'RIKENGLIK VA IJTIMOYIY TABAQALANISH MUAMMOSI 199

Qaxorova Saodat Qaxramonovna. Global taraqqiyot va etnoslararo jarayonlar 200

Bozorova Gulmira Mahmudovna. MUHAMMAD SHARIF JURJONiy BUYUK MANTIQQSHUNOS OLIM-FAYLASUF 204

Xusnullayeva Ma'muraxon Faxraddin qizi. ISLOM HUQUQIDA ATROF - MUHITNI MUHOFAZA QILISH MASALALARI 206

Zaripova Moxira Djurayevna. KANSEROGEN MODDALARNING ATROF-MUHITGA TA'SIRI..... 208

Qurbonova Marg'uba Boltayevna. ONA TILI - O'ZLIK TIMSOLI 210

Temirov Sheroz To'rayevich. MIRSIDDIQXON HASHMAT TAZKIRALARINING SHAXS BARKAMOLLIGIDA TUTGAN O'RNI..... 213

Hamroyev Asliddin Umed o'g'li. AMIR HAYDARNING MA'NAVIY QIYOFASI 215

Temirov Sheroz To'rayevich. XX ASR BOSHLARIDA BUXORODA ILMIY-ADABIY MUHIT.. 217

Xalikova S.T. SOG'LOM TURMUSH TARZINI RIVOJLANTIRISHDA EKOLOGIK MADANIYATNI O'RNI..... 220